ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 98 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA SODERJANIE CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Гапурова

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISHDA MODELLASHTIRISHNING O'RNI

Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna
Surxondaryo viloyati pedagogik markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda modellashtirishning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonini oldindan modellashtirish pedagogik jarayonning maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarini yagona tizimga keltirish hamda yuqori samaradorlikka erishish imkonini berishi asoslab berilgan. Maqolada davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari hamda zamonaviy talablarga tayangan holda ishlab chiqilgan modelning maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-metodik va baholash-natijaviy komponentlari, ularni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari ochib berilgan. Shuningdek, tarbiyachilarda kasbiy kompetentlik darajasini aniqlashning motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv mezonlari hamda ko'rsatkichlari tavsiflangan. Tadqiqot natijalari asosida malaka oshirish tizimida modelni amaliyotga joriy etish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkiloti, tarbiyachi-pedagog, kasbiy kompetentlik, modellashtirish, pedagogik model, malaka oshirish, pedagogik mahorat, refleksiya, innovatsion yondashuv, baholash mezonlari.

Abstract: This article highlights the place and significance of modeling in improving the professional competence of teachers (educators) of preschool educational organizations. It substantiates that preliminary modeling of the process of forming and developing professional competence makes it possible to integrate the goals, content, forms, methods, and means of the pedagogical process into a single system and to achieve high efficiency. The article reveals the target, content, organizational-methodological, and evaluative-resultative components of the model developed on the basis of the needs of the state, society, and the individual, as well as modern requirements, together with the pedagogical conditions for their implementation. In addition, the motivational, cognitive, activity-based, and reflexive criteria and indicators for determining the level of educators' professional competence are described. Based on the results of the study, conclusions and recommendations on introducing the model into the practice of the in-service training system are presented.

Key words: preschool educational organization, educator, professional competence, modeling, pedagogical model, in-service training, pedagogical skill, reflection, innovative approach, assessment criteria.

Аннотация: В данной статье раскрываются место и значение моделирования в совершенствовании профессиональной компетентности воспитателей-педагогов дошкольной образовательной организации. Обосновано, что предварительное моделирование процесса формирования и развития профессиональной компетентности позволяет объединить цели, содержание, формы, методы и средства педагогического процесса в единую систему и добиться его высокой эффективности. В статье раскрыты целевой, содержательный, организационно-методический и оценочно-результативный компоненты модели, разработанной с учётом потребностей государства, общества и личности, а также современных требований, и педагогические условия их реализации. Кроме того, описаны мотивационный, когнитивный, деятельностный и рефлексивный критерии и показатели определения уровня профессиональной компетентности воспитателей. На основе результатов исследования разработаны выводы и предложения по внедрению модели в практику системы повышения квалификации.

Ключевые слова: дошкольная образовательная организация, воспитатель-педагог, профессиональная компетентность, моделирование, педагогическая модель, повышение квалификации, педагогическое мастерство, рефлексия, инновационный подход, критерии оценки.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uning sifati va qamrovini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, Prezidentning 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son[1] qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining kasbiy tayyorgarligiga mutlaqo yangi talablarni qo'ymoqda. Bu talablar tarbiyachidan nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ularni o'zgaruvchan pedagogik vaziyatlarda ijodiy qo'llay olish, o'z faoliyatini tahlil qilish va doimiy takomillashtirib borish qobiliyatini, ya'ni kasbiy kompetentlikni talab etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlar ikki kichik tizim doirasida, ya'ni mashg'ulotda va mashg'ulotlardan tashqari faoliyat jarayonlarida amalga oshiriladi. Pedagogik tizim ta'lim tashkilotining maqsadi, vazifasi, ta'lim tashkiloti tomonidan tanlangan model va strategiyalar orqali tavsiflanadi. Shu bois tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni ham tasodifiy tadbirlar yig'indisi sifatida emas, balki ilmiy asoslangan, maqsad va natijalari aniq belgilangan yaxlit tizim sifatida loyihalashtirilishi lozim.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, malaka oshirish kurslari va metodik ishlarda ko'pincha nazariy bilimlarni berishga urg'u beriladi, tarbiyachining amaliy, kommunikativ va refleksiv ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Mazkur ziddiyatni bartaraf etishning samarali yo'llaridan biri kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonini oldindan modellashtirishdir.

Tadqiqotning maqsadi - maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o'rnini asoslash va uning tarkibiy komponentlari hamda amalga oshirish shart-sharoitlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- kasbiy kompetentlik va pedagogik modellashtirish tushunchalarining mazmunini ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilish;
- tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish modelining tarkibiy komponentlarini aniqlash;
- modelni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilash;
- kasbiy kompetentlik darajasini baholash mezon va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligi muammosi xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli jihatlardan tadqiq etilgan. Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari Yevropa Kengashi tashabbusi bilan o'tkazilgan tadqiqotlarda (V. Xutmaxer) ishlab chiqilgan bo'lib, unda tayanch kompetensiyalar shaxsning bilim, ko'nikma, qadriyat va munosabatlarini real faoliyatda safarbar eta olish qobiliyati sifatida talqin qilinadi [10].

Rus olimlaridan I. A. Zimnyaya tayanch kompetensiyalarni ta'lim natijasini aniqlovchi asosiy kategoriya sifatida ko'rib chiqib, kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini farqlaydi: kompetensiya – oldindan belgilangan talablar majmui bo'lsa, kompetentlik - ularning shaxsda namoyon bo'lgan sifatidir [8].

A. K. Markova esa kasbiy kompetentlikning maxsus, ijtimoiy, shaxsiy va individual turlarini ajratib ko'rsatadi hamda pedagog mehnatining samaradorligini uning kasbiy faoliyati, kasbiy muloqoti va shaxsini rivojlantirish birligida ko'radi [7].

V. A. Slastyonin tadqiqotlarida pedagogning kasbiy tayyorgarligi nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi sifatida tavsiflanib, uning tarkibida tahliliy, prognostik, loyihalash va refleksiv ko'nikmalar alohida ajratiladi [9].

O'zbekistonda kasbiy kompetentlik masalalari N. A. Muslimov tomonidan kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirish kontekstida chuqur o'rganilgan bo'lib, olim kasbiy shakllanishni motivatsion, kognitiv, operatsion va refleksiv komponentlar birligida ko'radi [5].

R. Ishmuxamedov, N. X. Avliyaqulov, N. N. Musayeva hamda X. A. Abdullayevalarning ishlarida ta'lim jarayonida innovatsion va pedagogik texnologiyalar, faol ta'lim usullaridan foydalanish masalalari yoritilgan bo'lib, ular pedagogning kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishning amaliy vositalarini belgilaydi [1; 2; 3].

Modellashtirish ilmiy bilish metodi sifatida V. A. Shtoff tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Olim modelni o'rganilayotgan obyektni aks ettiruvchi, uni almashtira oladigan va uni o'rganish orqali obyekt haqida yangi ma'lumot olish imkonini beruvchi fikran tasavvur qilinadigan yoki moddiy tizim sifatida ta'riflaydi [11].

Pedagogikada modellashtirish murakkab jarayonlarning tuzilishi, komponentlari o'rtasidagi aloqalar va rivojlanish qonuniyatlarini yaqqol ko'rsatish, ularni boshqarishni yengillashtirish vositasi sifatida qo'llaniladi.

1 https://lex.uz/ru/docs/-4327235

Maktabgacha ta'lim sohasiga oid manbalarda ham tarbiyachining bolalarni maktabga sifatli tayyorlashdagi roli va unga qo'yiladigan talablar yoritilgan[2].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbiy kompetentlik va pedagogik modellashtirish masalalari alohida-alohida yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari kasbiy kompetentligini malaka oshirish va metodik xizmat sharoitida modellashtirish asosida takomillashtirish muammosi hali maxsus tadqiqot obyekti bo'lmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatli yondashuvlar tashkil etadi. Tizimli yondashuv kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonini o'zaro bog'liq komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida ko'rish imkonini bersa, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasini tarbiyachining real kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladigan sifatlar orqali belgilashga xizmat qiladi. Shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatli yondashuvlar esa tarbiyachining individual ehtiyojlari, tajribasi va imkoniyatlarini inobatga olishni ta'minlaydi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- nazariy metodlar - mavzuga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, psixologik-pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, qiyoslash;
- modellashtirish metodi - kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining tarkibiy-funksional modelini ishlab chiqish;
- empirik metodlar - pedagogik kuzatish, suhbat, anketa so'rovi, tarbiyachilar faoliyati mahsullarini (mashg'ulot ishlanmalari, loyihalar) o'rganish;
- baholash metodlari - mezon va ko'rsatkichlar asosida tarbiyachilarning kasbiy kompetentlik darajasini aniqlash, natijalarni sifat jihatdan tahlil qilish.

Tadqiqot Surxondaryo viloyati pedagogik markazida tashkil etilgan malaka oshirish kurslari va metodik tadbirlar jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari ishtirokida olib borildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda uni tashkil etish jarayonini oldindan modellashtirish asosida yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Uning modeli pedagogik jarayonlarni tashkil etishda inobatga olish zarur bo'lgan konseptual masalalarni, o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayonlari strukturasini hamda pedagogik jarayonlarda amalga oshiriladigan vazifalarning izchilligini tasvirlaydi.

Modellashtirishda ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion faoliyatni ta'minlash, tarbiyachilarda mustaqil tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini hamda mavzularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash, ma'lumotlarning uzviyligi va uzluksizligi, ishonchliligi va yangiligini ta'minlash, zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta'lim jarayoniga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq qilish, tarbiyachilarning qobiliyatlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruriyatlarini inobatga olgan holda vazifalar belgilanishi zarur.

Shuningdek, tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini modellashtirishda quyidagi shartlarning bajarilishini inobatga olish zarur:

- davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari, konseptual asoslar hisoblangan ilg'or rivojlantiruvchi g'oyalarni hamda barchaga tegishli zamonaviy talablar, tarbiyachi va pedagoglarda shakllantirilishi zarur bo'lgan tushunchalarga asosan tarbiyachi-pedagog shaxsi komponentlarini ishlab chiqish;
- tarbiyachilarda shakllantirilishi zarur bo'lgan muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarning ko'rsatkichlarini aniqlash;
- shaxsiy sifatlar ko'rsatkichlariga ko'ra tarbiyachi-pedagog shaxsini baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- zamonaviy talablar asosida o'quv dasturlarini takomillashtirish;
- ta'lim, mustaqil ta'lim, tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlashni nazarda tutuvchi ta'lim-tarbiya jarayoni loyihasini yaratish;
- tarbiyachilarda tarixiy xotirani shakllantirish va rivojlantirish asosida muhim ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni rivojlantiruvchi tashkiliy strukturaga ega bo'lish.

2 Maktabga tayyorlashning katta kitobi. / S.I.Gavrinava, N.G.Kutyavinalar tahriri ostida. – T.: O'zbekiston, 2012. – 160 b.

Tadqiqot muammosini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim-tarbiya jarayonlarining barcha asosiy shakllari integratsiyasi amalga oshiriladigan, belgilangan vazifalarning samarali bajarilishini ta’minlovchi, yangiliklarni kengaytirish, rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlash, takomillashtirish va muvofiqlashtirish imkoniyatlarini yaratuvchi, yangiliklar bilan boyitilgan mukammal modellarni yaratish va takomillashtirib borish zarur.

Bularni nazarda tutgan holda, tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni modeliga tarbiyachilarning faolligini ta’minlashga qaratilgan vazifalarni ifodalovchi quyidagi komponentlar kiritilishi muhim ahamiyatga ega:

- ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish va tarbiyachining faolligini ta’minlash yo‘nalishida bajariladigan vazifalar bilan foydalaniladigan metodlar va yondashuvlarni muvofiqlashtirish;
- tarbiyachilarda qiziqishlar shakllantirish, tarixiy xotirani shakllantirish va rivojlantirish vositalarini tanlash;
- tarbiyachilarda yangiliklarga moyillik va qiziqishlar shakllantiruvchi motivlarni aniqlash;
- tarbiyachilarda tanqidiy fikrlash va refleksiv tafakkurni shakllantiruvchi ijobiy motivlarni aniqlash va motivlashtirish;
- pedagogik jarayonlarning mazmunini takomillashtirish omillarini aniqlash;
- pedagogik jarayonlarning istiqbolini va samaradorligini rivojlantirish yo‘nalishidagi vazifalarni oldindan belgilash;
- pedagogik jarayonlarni takomillashtirish yo‘nalishida amalga oshirish zarur bo‘lgan vazifalarni belgilash.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari modelini ta’lim-tarbiya jarayonlarining barcha shakllarining o‘zaro bog‘liqligini ta’minlovchi, belgilangan maqsad va vazifalarning yo‘nalishini ifodalovchi va ko‘zlangan natijalarga erishishni ta’minlovchi, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va bir-birini to‘ldiruvchi komponentlardan iborat bo‘lgan tizim sifatida tasvirlash mumkin. Uni tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish andozasi deb aytishimiz o‘rinli. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan modelning tarkibiy komponentlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: **Tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish modelining tarkibiy komponentlari**

Komponent	Mazmuni	Amalga oshirish vositalari
Maqsadli	Davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari hamda zamonaviy talablar asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish maqsad va vazifalarini belgilash	Me’yoriy hujjatlar, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, kasbiy standart talablari
Mazmuniy	Psixologik-pedagogik, metodik, kommunikativ, axborot-texnologik va refleksiv bilim hamda ko‘nikmalar tizimi	Malaka oshirish o‘quv dasturlari, modul va treninglar, mustaqil ta’lim materiallari
Tashkiliy-metodik	Faol va interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, ilg‘or tajriba almashinuvi orqali jarayonni tashkil etish	Seminar-treninglar, ochiq mashg‘ulotlar, master-klasslar, murabbiylik (mentorlik), keys-stadi, loyiha usuli
Baholash-natijaviy	Kasbiy kompetentlik darajasini mezon va ko‘rsatkichlar asosida aniqlash, natijalarni tahlil qilish va jarayonga tuzatishlar kiritish	Kuzatish varaqalari, anketa, portfolio, o‘z-o‘zini baholash, refleksiv kundalik

Mazkur model ta’lim-tarbiya jarayonlarining barcha shakllarining o‘zaro bog‘liqligini ta’minlovchi tizim sifatida tasvirlanganligini inobatga olib, aytishimiz mumkinki, modelda keltirilgan komponentlarning har biri tarbiyachilarda mustaqil tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish tizimi komponentlari sifatida butun bir tizimning o‘zgarishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Masalan, maqsadli komponentdagi o‘zgarish mazmun va metodlarni qayta ko‘rib chiqishni, baholash natijalari esa navbatdagi bosqich vazifalarini aniqlashtirishni talab etadi.

Maqsad obyektiv bo‘lib, tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo‘lsa-da, bugungi tarbiyachi ertangi metodist-pedagog, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini har tomonlama sog‘lom, faol, nutqi ravon, mustaqil fikrlaydigan, maktab hayotiga sifatli tayyorlaydigan fidoyi, o‘z ishining ustasi sifatida hurmat qozongan katta tarbiyachi, mazkur jarayonlarni tashkil etuvchi va muvofiqlashtiruvchi rahbar (direktor), tarbiyalanuvchilar bilan bevosita tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi guruh tarbiyachisi, to‘garak rahbari va h. k. sifatida faoliyat ko‘rsatishini inobatga olgan holda, modelda barchaga tegishli hisoblangan korporativ asoslarni o‘rganish va ular asosida vazifalar belgilash zaruriyati ko‘rsatilgan.

Modelda keltirilgan korporativ asoslardan biri sifatida davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari, zamonaviy talablar keltirilgan bo‘lib, bunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, fan-texnika yutuqlari, yaratilayotgan yangiliklar va rivojlanishlar asosida vujudga kelayotgan talablarni, rivojlanib borayotgan

davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlarini, kun sayin o'zgarib, yangilanib borayotgan zamonaviy talablarni, shuningdek, yoshlar ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'nalishidagi ilg'or g'oyalarni o'rganish va ular asosida vazifalar belgilash nazarda tutilgan.

Tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini modellashtirishda ta'limning ustuvorligi va milliy yo'naltirilganligini ta'minlovchi hamda ijtimoiylashtirish, demokratlashtirish, insonparvarlashtirish prinsiplariga asoslangan, tarbiyachilarning o'z kasbiy faoliyat yo'nalishlari va funksional vazifalarini anglashi, tahlil qilishi, shuningdek, o'zini-o'zi rivojlantirish ehtiyojlarini faollashtirishi, ma'naviy boyishi hamda ijodiy salohiyatini rivojlantirishi uchun imkoniyat yaratuvchi ta'limiy muhitni vujudga keltirish zaruriyatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Tahlillar asosida modelni samarali amalga oshirishning quyidagi pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi. Tarbiyachilar uchun:

- o'zini mustaqil va o'zini-o'zi boshqaruvchi subyekt sifatida his etishi, erkin so'zlashi va faol ishtirok etishi;
- ta'lim jarayonida yetakchi rolni egallashi, o'zini-o'zi rivojlantirishga intilishi;
- pedagogik faoliyati uchun ta'lim-tarbiya manbai sifatida vujudga keladigan hayotiy va ilg'or pedagogik tajribalarni egallashi;
- belgilangan aniq maqsadlarga erishish va muhim hayotiy muammolarni hal etish yo'nalishida amaliyotni o'rganishi;
- ta'lim olish uchun yuqori darajadagi tayyorgarlik va motivatsiyaga ega bo'lishi;
- egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotga tatbiq etish zaruriyatini anglab yetishi;
- olgan bilimlari asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berishga yuqori darajada intilish hissiyotlarining vujudga kelishi;
- o'zi tanlagan kasbning ahamiyati va nufuzini tushunib yetishi, muhim ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirishi va rivojlantirishi;
- o'tmish va kelajakni obyektiv baholashi, refleksiv tafakkurini rivojlantirishi kabi shart-sharoitlar yaratilishi zarur.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olish, ya'ni ularning har birining samaradorligi ikkinchi bir jarayon samaradorligiga ta'sir ko'rsatishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ya'ni pedagogik jarayonning asosiy komponentlaridan biri hisoblangan mashg'ulotlar samaradorligi tarbiyachining kasbiy va metodik tayyorgarligi, mashg'ulotlarning natijaviyligi yoki mustaqil ta'lim uchun asos sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi. Shuningdek, pedagogik tajriba-sinov yoki tarbiyachilar uchun tashkil etiladigan pedagogik amaliyot jarayonlari samaradorligi kelajak avlod ta'lim-tarbiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatishini inobatga olish zarur. Mazkur zaruriyatlar ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy kompetentligini nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalar majmui tashkil etadi. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari - bu, avvalo, tarbiyachining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalari hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasi va bilimini tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali bolalar ongi va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir.

Modelning baholash-natijaviy komponentini amalga oshirish maqsadida tarbiyachilar kasbiy kompetentligi darajasini aniqlashning mezon va ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (2-jadval).

2-jadval:. **Tarbiyachilar kasbiy kompetentligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari**

Mezon	Ko'rsatkichlar
Motivatsion	Kasbga qiziqish va qadriyatli munosabat; yangiliklarga moyillik; o'zini-o'zi rivojlantirish ehtiyoji; bolalar bilan ishlashdan qoniqish
Kognitiv	Maktabgacha pedagogika va bolalar psixologiyasi bo'yicha bilimlar; "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi mazmunini bilish; innovatsion texnologiyalar haqida tasavvurlar
Faoliyatli	Mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari faoliyatni loyihalash va o'tkazish; faol metodlarni qo'llash; ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot; pedagogik texnika
Refleksiv	O'z faoliyatini tahlil qilish va baholash; xatolarni anglab, tuzatish yo'llarini topish; kasbiy rivojlanish rejasini tuzish; tanqidiy fikrlash

Ushbu mezonlar asosida tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi yuqori (ijodiy), o‘rta (produktiv) va past (reproduktiv) darajalarga ajratildi. Yuqori darajadagi tarbiyachi pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qiladi, innovatsion metodlarni ijodiy qo‘llaydi va o‘z tajribasini hamkasblariga ulasha oladi; o‘rta darajadagi tarbiyachi ma’lum namuna asosida faoliyat yuritadi, biroq yangi vaziyatlarda qiyinchilikka uchraydi; past darajadagi tarbiyachi esa asosan an’anaviy, reproduktiv usullarga tayanadi.

Malaka oshirish kurslari va metodik tadbirlar jarayonidagi kuzatishlar, suhbat va anketa natijalarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, model asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar (seminar-treninglar, ochiq mashg‘ulotlar tahlili, master-klasslar, mentorlik) tarbiyachilarning kasbiy motivatsiyasini oshirishga, faol metodlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini mustahkamlashga hamda o‘z faoliyatini refleksiv baholash madaniyatini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, faoliyatli va refleksiv mezonlar bo‘yicha sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi, bu esa modelning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy kompetentligi motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlarning birligidan iborat integrativ sifat bo‘lib, u tarbiyachining zamonaviy talablar asosida bolalar ta’lim-tarbiyasini samarali tashkil eta olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.
2. Modellashtirish kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining maqsadi, mazmuni, shakl-metodlari va natijalarini yagona tizimga keltirish, uni oldindan loyihalash va boshqarish imkonini beradi.
3. Ishlab chiqilgan model maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-metodik va baholash-natijaviy komponentlardan iborat bo‘lib, ularning har biri boshqalariga ta’sir ko‘rsatadi va butun tizimning samaradorligini belgilaydi.
4. Modelning samaradorligi tarbiyachining faol subyekt sifatidagi ishtiroki, ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganishi, yuqori motivatsiya va refleksiv tafakkurni rivojlantiruvchi ta’limiy muhit kabi pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Pedagogik markazlar va malaka oshirish muassasalarida tarbiyachilar uchun o‘quv dasturlarini kasbiy kompetentlik mezonlari asosida modulli tizimda qayta ishlab chiqish.
2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tajribali tarbiyachilar va yosh mutaxassislar o‘rtasida mentorlik (murabbiylik) tizimini yo‘lga qo‘yish.
3. Tarbiyachilarning kasbiy rivojlanishini kuzatib borish uchun elektron portfolio va refleksiv kundalik yuritish amaliyotini joriy etish.
4. Metodik birlashmalar faoliyatida ochiq mashg‘ulotlar tahlili, master-klass va keys-stadi kabi faol shakllarning ulushini oshirish.
5. Tarbiyachilar kasbiy kompetentligi darajasini muntazam ravishda (yiliga kamida bir marta) ishlab chiqilgan mezon va ko‘rsatkichlar asosida diagnostika qilib borish hamda natijalar asosida individual rivojlanish rejalarini tuzish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ishmuxamedov R. va b. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. - T.: Iste’dod, 2008.
2. Abdullayeva X.A. Mashg‘ulotlarda faol ta’lim usullaridan foydalanish. - Farg‘ona: FarDU, 2008.
3. Avliyaqulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008. - 164 b.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 16.12.2019, O‘RQ-595-son.
5. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. - T.: Fan, 2004.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori.
7. Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Знание, 1996. - 308 с.
8. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. - 2003. - № 5. - С. 34-42.
9. Сластёнин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. - М.: Академия, 2002. - 576 с.
10. Hutmacher W. Key competencies for Europe. - Strasbourg: Council of Europe, 1997.
11. Штофф В.А. Моделирование и философия. - М.-Л.: Наука, 1966. - 301 с.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.